

**ONA VATAN, EL-YURTGA SADOQAT RUXIDA YASHASH
BARHAMIZNING BURCHIMIZDIR.*****Dadabayev Doniyor Axmadjonovich****O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik litsey**ChQBT o'qituvchisi (istefodagi podpolkovnik)****Sharipov Asadbek Abdulhakim o'g'li****O'zbekiston Respublikasi IIV Namangan akademik**litsey bosh o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga e'tibor qaratilgan. Yosh xodimlarning vatanparvarligi, ma'naviyati, ahloqi va saviyasini ko'tarish, unga ijobiy ta'sir etuvchi harbiy vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tarbiyani yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha fikirlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, Vatan, vatanparvarlik, inson, ijtimoiy-ma'naviy xayot, milliy g'urur, qadriyat, ong tafakkur.

Sir emas, yangi O'zbekiston dunyoga yangi qiyofa bilan tanildi. Xorijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning respublikamizga bo'lgan munosabati, ta'bir joiz bo'lsa, bahosi o'zgardi. Xalqaro reyting va indekslarda o'rnimiz yuqoriladi. Qo'shnilar bilan do'stona aloqalarimiz yangi bosqichga ko'tarildi. Qardosh xalqlar bimalol, hech bir qiyinchiliksiz chegaralardan o'tib, mehmonga borib-kelmoqda.

Ma'lumki, bugun dunyo ayvonida vaziyat o'ta murakkab. Barchamiz turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar, kerak bo'lsa, to'qnashuvlar guvohi bo'lib turibmiz. Mana shunday sharoitda O'zbekiston qanday yo'l tutishi kerak, degan tabiiy savol tug'iladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirzayoyev aniq va lo'nda qilib aytganidek, bosh maqsadimiz — O'zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sarhadi daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Chunki har qanday davlat uchun, har qaysi xalq uchun tinchlik va osoyishtalik eng aziz ne'mat hisoblanadi.

Xo'sh, ushbu ulkan maqsadga erishish uchun nima qilishimiz kerak?

Avvalo, Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida milliy armiyamizni 2030 yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlash vazifasi belgilandi.

Ikkinchidan, qo'shinlar jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, yetuk harbiy xizmatchilarni tayyorlash, shuningdek, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bugun nihoyatda dolzarb.

Uchinchidan, harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyatni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylantirish vazifasi oldimizda turibdi.

To'rtinchidan, harbiy xizmatchilarni, maktab, texnikum va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan farzandlarimizni, umuman, barcha yoshlarimizni tariximiz va ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosi asosida tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratishimiz kerak bo'ladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida kamolga yetkazish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish masalasiga ham to'xtalib o'tildiki, ushbu masala bugungi tahlikali davrda qanchalik dolzarbligini tushunish qiyin emas.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimizda yoshlarga bo'layotgan e'tibor kelgusida yanada kuchayadi. Pirovardida ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimiz o'zlarini har jabhada to'liq namoyon etadi. Bunga ishonchimiz komil.

Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bollari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar,— shuning kabi odamlar ham qayerda tug'ilib parvarish topsalar,— o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar.

Olimlarni vatan xaqida aytgan fikrlari:

V. G. BYeLINSKIY - vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o'z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qayerda, har qanday vatanda ham bo'ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko'rish demakdir.

A. N. TOLSTOY - vatanparvarlik — yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu — vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqatish demakdir.

M. Ye. SALTIKOV-ShChYeDRIN - vatan g'oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. U halol kishilarda jasorat haqida fikr uyg'otadi, nopok kishilarni esa, agar vatan g'oyasi bo'lmaganda qilishlari aniq bo'lgan ko'pgina qabihliklardan saqlaydi.

N. G. ChYeRNIShYeVSKIY - vatanparvar — vatanga xizmat qilayotgan kishidir, vatan esa bu avvalambor xalqdir.

Tabiiyki, kindik qoni to'kilgan joy inson uchun hamma narsadan ham qimmatli dargohdir. Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallam Madinai munavvaraga hijrat qilib ketayotganlarida tug'ilib o'sgan vatani Makkai mukarramaga yuzlanib turib: "Agar qavmim meni chiqib ketishga majbur qilmaganida, hech ham o'z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo'lur edim", deganlari siyrati nabaviya kitoblarida bayon etilgan.

Demak, Vatanni sevish, vatanparvar bo'lish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog'inib yashash insoniyat tabiatida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir.

Buyuk alloma Alisher Navoiy hazratlarining quyidagi soʻzida ona-Vatanini sevuvchi sadoqatli har bir kishining qalbida gʻayrat va shijoat uygʻotadi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Ani ranji – gʻurbat, havas aylama.

Donolar aytadilar: “Kishining vafodorligi va sadoqati uning oʻz Vatani uchun qaygʻurishidan, doʻstlarini sogʻinishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga achinib, oʻkinib yashashidan bilinadi”. Insonning oʻz xalqiga boʻlgan sadoqati va fidoiyligi ona Vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli boʻlishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qoʻshishi bilan oʻlchanadi.

Vatan himoyasi barchamizning muqaddas burchimiz! Diniy-maʼnaviy qadriyatlarimiz qaytadan xalqimizga qaytarildi. Imon-eʼtiqodimiz va ertangi kunga boʻlgan ishonchimiz mustahkamlandi. Shaharu qishloqlarimiz koʻrkam va obod boʻldi. Hayotimizga beqiyos maʼno va mazmun olib kirgan bu bebaho ilohiy neʼmatlarning qadriga yetish, ularga shukr qilish, uni asrab-avaylash barchamizning burch va vazifamizdir.

Hikmatli soʻzlar:

Vatan hurmati ota – onang hurmatidan. Chunki sening ozuqang ota – onangdan. Ikkisini ozuqasi – Vatandandir.

Qush – iniga, inson – Vataniga oshiqadi.

Senda onangni sut haqqi boʻlganidek, yashab turgan yeringni Vatan haqqi bor.

Oqilning belgilari: doʻstlarga yaxshilik qiluvchi, Vataniga oshiquvchi, ahli zamona bilan murosada yashovchi boʻlishidir.

Vatanni sevish bilan diyorlar obod boʻlur.

Insonlar Vatanlarini sevmaganlarida shaharlar xarob boʻlur edi.

Bugungi notinch va murakkab zamonda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalq farovonligini taʼminlash juda katta mehnat va masʼuliyatni talab qiladi. Buning uchun har bir yurt farzandi oʻzini shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalbdan xis qilgan holda oʻzining jamiyatdagi vazifalarini toʻla ado qilmoqliklari lozim. Zero, Vatanga xizmat shu yurt farzandiman degan har bir oʻgʻil-qiz uchun eng oliy saodatdir.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi istiqloq bilan chambarchas bogʻliq. Har bir insonning oʻz ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, oʻz atrofida boʻlayotgan voqealarga teran nigoh bilan qarab, Vatan tinchligi yoʻlida hushyor va ogoh boʻlib yashashi, mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni taʼminlashning muhim omili hisoblanadi.

1992 yil 14 yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida muhim voqea yuz berdi. Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topdi. 1993 yildan e'tiboran 14 yanvar yurtimizda "Vatan himoyachilari kuni", deb e'lon qilindi.

Ana ushbu shonli sananing 33 yilligini nishonlash arafasida turibmiz.

Ushbu qutlug' sana yuragida Vatan va xalq sevgisi mahkam joy olgan shijoatli o'g'lonlar, yurt sarhadlarini sergaklik bilan qo'riqlayotgan aka-ukalamiz qatori, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida turli sohalarda xizmat qilayotgan barcha vatandoshlarimizni bayramidir.

Xaqiqatdan, Vatan ximoyachisi bo'lish eng sharaflari va oliy kasb ekanini yaxshi bilgan yigitlarimiz xar tomonlama, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan loyiq bo'lishni yaxshi anglaydilar, anashu sifat va xislatlarni egallashga doimo harakat qiladilar. Bu vazifalari bilan ular nafaqat o'z Vatanlarini balki, eng yaqinlari bo'lmish ota-onalari, qavmu-qarindoshlari, tug'ilib o'sgan maskanlarini himoya qilgan bo'ladilar. Alloh taolo jonajon yurtimiz sarxadlarini sergaklik bilan qo'riqlayotgan Vatan ximoyachilarini hifzu ximoyasida saqlab, diyorimiz osmonini doimo musaffo, tinchligimizni esa barqaror va mustaqilligimizni abadiy qilsin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zA sayti, [09.05.2020 y., uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-buyu-09-05-2020](https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-buyu-09-05-2020).
2. Vatanparvarlik – ulug' fazilat muslim.uz - Yanv 14, 2018
3. Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida kamolga yetkazish — dolzarb vazifa 18.07.2023 yil 987